

# **Qizlar o'rtasida "Zakovat" o'yini o'tkazildi**

Joriy yilning 5 mart kuni, Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti va akademik litsey ayol xodimlari va talaba-qizlari o'rtasida Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan "Zakovat" intellektual o'yini bo'lib o'tdi.

Tadbirni Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti rektori Olimjon To'ychiyev tabrik so'zi bilan ochib berib, barcha universitetda faoliyat ko'rsatayotgan ayollarni, talaba qizlarni kirib kelayotgan bayram bilan tabrikladi.





Shundan "Zakovat" o'yini boshlanib, ushbu bellashuvda tyutorlar tomonidan tayyorlanib kelingan bir-biridan qiziqarli, bayramona 10 ta savollar o'rtaga tashlandi.

Tadbir davomida, universitetimizda tashkil etilgan “Mening do’ppim” chellenji, shuningdek qizlar o’rtasida tashkil etilgan badminton bo’yicha musobaqa g’olibi va barcha qatnashchilariga esdalik sovg’alari topshirildi.







Tadbirga mehmon sifatida taklif etilgan P. Benkov nomli san'at maktabi o'quvchilari tomonidan go'zal liboslar defilesi tadbirga bayramona kayfiyat ulashdi. O'yin yakunida g'olib

jamoa esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

